



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR
VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI
O'ZBEKISTON RESPUBLİKASI FANLAR AKADEMIYASI
O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

**"G'AFUR G'ULOM IJODIY
MEROSINING O'ZBEK VA JAHON
ADABIY-ESTETIK TAFAKKURI
TARAQQIYOTIDAGI O'RNI"**

mavzusida o'tkazilgan xalqaro ilmiy anjuman

TO'PLAMI

Toshkent 20-sentabr, 2023-yil

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOZUVCHILAR UYUSHMASI

**"G'AFUR G'ULOM IJODIY MEROSINING O'ZBEK VA JAHON
ADABIY-ESTETIK TAFAKKURI TARAQQIYOTIDAGI O'RNI"**

**mavzusida xalqaro ilmiy anjumani
to'plami**

Toshkent – 2023

singdirilgan insonparvarlik, go‘zallik, vatanparvarlik tuyg‘ularini, adolat va ma’rifat g‘oyalarini yuksak mahorat bilan ko‘rsatib bera olgan. [Matyoqubova T., 2006;12]

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.G‘afur G‘ulom.Tanlangan asarlar. Toshkent, Gafur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. 310-323-betlar.
- 2.Muhammadjonova G. G‘afur G‘ulomning obraz yaratish mahorati. 2023;131 / ASI Factor = 1.7 3(4/2), April, 2023 Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF
- 3.Matyoqubova T. G‘afur G‘ulom badiiyati (Mas’ul muh. U.Normatov. – T , 2006. – 160 b.)
4. Xurshid Dustmuhammad. Ozod iztirob quvonchlari. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2000. 35-41-betlar.

JAHON VA O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA SAYOHAT, SARGUZASHT MOTIVINING UYG‘UN TAMOYILLARI

Bashorat JAMILOVA
Buxoro davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori,

Mohigul QAHHOROVA
Buxoro davlat universiteti katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: maqolada jahon bolalar adabiyotida sarguzasht-fantastik asarlarning etakchiligi, ularda asosan o`smirlar xarakter xususiyatining toblanishi hamda ruhiyati ifodasi tasviri, shuningdek, sayohat motivi orqali ijtimoiy-siyosiy hayotning dolzarb muammolarini yoritish an`analari G`G‘ulomning "Shum bola" asari bilan muqoyasaviy o`rganilgan.

Kalit so‘zlar: motiv,sarguzasht, sayohat, xarakter, komik, dinamik, ozodlik, erk, ramz, protagonist, qahramon, psixologik, dramatizm.

Annotation: in the article, the leadership of adventure-fantasy works in the world children’s literature, mainly in them the development of character traits and the expression of the spirit of teenagers, as well as the traditions of highlighting the current problems of social and political life through the motif of travel, are studied in comparison with the work of G. Ghulam "Shum bola".

Key words: motive, adventure, journey, character, comic, dynamic, freedom, man, symbol, protagonist, hero, psychological, drama.

Barcha mamlakatlarning xalq ertaklari ham aslida sarguzasht hikoyalardan iboratligi ayon haqiqat. Jahon adabiyotida XIX asrdayoq bu yo`nalishdagi asarlar kutilmagan jumboqlar, g`ayrioddiy hamda qiziqarli voqealarga boyligi bilan

o`quvchilarni ko`proq jalb eta boshlagan. Sarguzasht asrlarning jasur, epchil va qo`rqmas qahramonlari hamisha o`zlariga yaqinlashib kelayotgan halokat, yoki xavf-xatarning oldini olishga tayyor turishgan.

Sarguzasht adabiyotining muhim xususiyatlaridan yana biri harakatning jadal rivojlanishi, syujetninā almashib turishi, bosh qahramonlarning his-tuyg`ulari yaqqol ifodalanishidir. Bunday asarlarning bosh qahramonlari ko`proq bolalar va o`smirlar ekanligi ham shundan deyish mumkin. Sarguzasht asar “Escapist” adabiyotning bir turi bo`lib, u kitobxonga kundalik hayotdan qochib qutulish uchun imkon yaratadi [<https://pediaa.com/what-is-escapist-literature>]. “Escapist” - o`yin-kulgi, yoki xayolot olamiga g`arq bo`lib, haqiqiy olamdan qochadigan kishi ma`nosini bildiradi [<https://www.dictionary.com/browse/escapist>]. Shu jihat bilan u fantastikaga xos bo`lib, sarguzasht-fantastik atamasini qo`llanishiga asos bo`la oladi.

Jahon bolalar adabiyotida sarguzasht asarlarning ko`plab namunalari yaratilgan bo`lib, undagi bosh qahramonlar ham asosan o`smir yoshdagi yigit-qizlardir. Ular kutilmagan, olis mamlakatlarga sayohat qilib, sir-asrorga boy xazinalar topishadi, kashfiyotlar yaratishga tuyassar bo`lishadi, yoki noodatiy voqe-a-hodisalarini boshidan kechiradi. Masalan, Mark Tvenning mashhur “Tom Soyerning sarguzashtlari” va “Geklberri Finning boshidan kechirganlari” shu jihatdan jahon bolalar sarguzasht adabiyotining durdona asarlaridir.

Mark Tvenning "Geklberri Finning boshidan kechirganlari" romani 1884- yilda yozilgan bo`lib, unda 12 yoshli o`smir bola Geklberri Finn hamda qora tanli qochoq qul Jimning sarguzashtlari hikoya qilinadi. Bu ikki do`st ta`qibdan qochib, Missisipi daryosi bo`ylab sayohatga jo`naydilar. Roman bosh qahramoni Geklberri Finn - sho`x, o`ynoqi, uddaburon o`smir bola bo`lib, dastavval yolg`iz o`zi sayohatga chiqadi. Uning otasi tambal, aroqxo`r, o`z bolasining pullarini olish ilinjida o`g`lini o`zining xaroba kulbasiga olib kelib, savalab, qamab qo`yar edi. Otasining ahvoldidan qattiq qo`rqqan o`smir taassuroti kitobxonni befarq qoldirmaydi: "Qancha uxlaganimni bilmayman, qo`qqisdan qo`rqinchli bir tovush o`rnimdan turg`izib yubordi. Otam xuddi jinni odamdek har yoqqa sakrar va "Ilon! Ilon!" - deb baqirardi. "Oyog`imda ilon yuribdi," - deb qichqirardi, goh "ilon chaqib oldi" deb sakrab ketar edi, lekin men hamma yoqni qarab chiqsam ham bironta ilon ko`rinmadni. Kulba ichida aylanib chopib: "Mana bu ilonni tezroq olib tashla, elkamni chaqayapti!" - deb baqiraverdi. Otamning ko`zlaridek bema`no, vahshiy ko`zlarni shu vaqtgacha hech ko`rgan emas edim." [Mark Tven, 2020; 35]

Asardan anglashiladiki, uydagi zerikarli va qo`rqinchli hayotdan qutulish, qolaversa eng yaqin insoni otasidan har kuni shafqatsizlarcha kaltaklanishi, och qoldirilishi, xaroba va butilka shishalar, axlaò uyumlari hamda qo`lansa hid bosgan xaroba katalakka qamab qo`yilishi kabi azoblar o`smir ruhiyatini keskinlashtirib qochib ketish istagi paydo bo`ladi. Natijada qahramon erkinlik istab sarguzash - sayohatga chiqadi.

Missipi daryosi Gekl'berri Finning erkin va mustaqil hayot kechirish ramzini ifodalaydi. Zulmkor otasidan qochish maqsadini ko`zlagan bosh qahramon sayohati davomida ko`p g`aroyib sarguzashtlarning guvohi bo`lishni xohlar edi. Geklberri Finning ruhiyatida uchta ulkan istagi yashiringanini ko`rish mumkin:

1. Vahshiyona munosabatda bo`lgan otasidan qochish istagi. O`s米尔 otasidan qochib ketayotganida o`zining o`limi haqidagi soxta sahnani ishlab chiqadi: chunki u mustaqil va ozod bo`lishni, Missisipi daryosi bo`ylab sayohatga jo`nab ketishni xohlar edi.

2. Geklberri Fanning ham ota, ham tan soqchisi vazifasini bajaradigan qora tanli do`sti Jimga yaqin do`st va sirdosh bo`lish istagi.

Qahramon orolda yolg`iz qolganida to`satdan qora tanli Jimni uchratadi. Jim o`z xo`jayinidan qochib, erkin hayot kechirmoqchi edi. Bola Jim bilan birga Missisipi daryosi bo`ylab sayohatini davom ettiradi. Vaqt o`tishi bilan Jimning oqko`ngilligi va sodiqligi tufayli unga bog`lanib qoladi. Jim Geklberrining otasi vafot etganini asar oxirigacha sir tutib, do`stining xafa bo`lishiga yo`l qo`ymaydi: "Jimni qoralaydigan biron narsa topolmayman, aksincha nuqul uning yaxshiliklari ko`zim oldiga kelaveradi. Goh o`z vaxtasida turib bo`lgach, meni uyg`otmasdan, mening vaxtamda ham turgani, goh tumanda qolib ketib, axir solga qaytib kelganimda o`zida yo`q sevinib ketgani, goh bir-birimizni yo`qotib qo`yib, keyin botqoqlikda topishganimizdagи suyunganlari, meni nuqul "chirog`im", "qo`zim" deb erkalatganlari, menga hech ish qildirmay, hammasini o`zi qilib yurganlari, menga ko`rsatgan mehribonliklari esimga kelaverdi; eng oxirida, solimizda qizilcha kasal bor deb uni qutqarib qolanim, buning uchun mendan minnatdor bo`lgani va dunyoda sendan boshqa qadrdonim yo`q, bitta-yu bitta qadrdon do`stim sen deb yurganlari esimga keldi" [Mark Tven, 2020; 248].

3. Geklberri Finnning o`zi yo`l qo`yan xatolarini tuzatish istagi.

Geklberri Finn jamiyatdagi ana shunday nobop tuzum, noxolis munosabatlar guvohi bo`lish orqali ruhiyatida, tafakkurida keskin o`zgarishlar yuz berganligi asar kontseptsiyasini belgilay olgan. Kattalardan ko`ra bolalar va o`s米尔arda samimiylilik, insoniy tuyg`ular ko`pligini, hayot haqiqatiga ular nigohi orqali qarashni ayonlashtiradi.

O`zbek bolalar adabiyotida G`G`ulomning "SHum bola" qissasi sarguzasht motividagi dastlabki asarlardan. XX asrning dastlabki choragidagi xalqimiz boshidan kechgan qora kunlar, qiyinchiliklar, katta-yu kichikni baravar tashvishga solgan qahatchilik tufayli qissa bosh qahramoni Qoravoy tirikchilik ilinjida uyidan qochib ketadi. O`s米尔 bolaning boshidan kechirgan sarguzashtlari asarda komik uslubda tasvirlansa ham yarim yillik sargardonlik davomida mavjud hayotning, jamiyatning ko`pgina qirralari realistik aks ettiriladi. Qahramon ruhiyati o`z boshidan kechirgan sarguzashtlari ta`sirida o`zgarib, rivojlanib boradi. Qissaning sarguzasht yo`nalishda yozilgani, o`s米尔 yoshdagi qahramon Qoravoyga erkinlik yaratib berilgani asarning badiiy-kompozitsion, janriy takomilini yanada oshiradi. Qoravoy o`rtoqlari bilan xalfana o`yini asosida osh pishirishni rejalashtirib, uyidan tuxum va yog` o`g`irlayotganida qo`lga tushib qoladi. Yog` erib oqqan, tuxum esa singanligi sababli o`rtoqlari yoniga bormay, uydan qochib ketadi. Qoravoyning sarguzashtlari shundan keyin boshlanib ketadi. Qahramonning dastlabki hatti harakatlarida bolalarcha soddalik, sho`xlik va yolg`onchilik ko`zga tashlanadi, ba`zan esa nodonligi tufayli borgan xonodonlarida ishkal chiqaradi. Yozuvchi uning sho`xligini pochchasining qushlarini halok qilish voqeasi orqali yorqinroq tasvirlaydi: "Qushxonaning qirmagul qozig`ida pochchamning qush qo`ndiradigan

ov qo`lqopi ilig`lik turgan ekan. Qo`limga kiyib oldim-da, miqqiyni ko`tardim. Butimga qisib, og`zini yirib, kumush qoshiq bilan qatiq ichira boshladim. Obdon to`ydi, boshqa qushlarni ham shunday qildim. "Ana endi to`ydilaring, kishi bir erga qadalib o`tira bersa ham charchaydi, qorin to`q bo`lgandan keyin kishi tolmaydi" [G` .G` ulom. 2019; 15].

Qushlarga majburlab qatiq ichirganligi tufayli qushxonaga kirib qarasa, ular jon taslim qilgan edi. Qo`rqqanidan pochchasining uyini tark etishga majbur bo`ladi. Qissa davomida uning har gal qilgan nojo`ya harakati tufayli yangi makonlarini tashlab ketishi ko`rinadi: "Attang-attang, qo`lga kiray deb qolgan naqdina jannatdan ajraldim. SHu ondayoq xayr-xo`shni nasya qilib biyobonga yo`l oldim. Osmon uzoq, er qattiq edi. Qaerga ketib borayotganimni o`zim bilmas edim. Oldinda biror mo`ljallagan niyatim ham yo`q edi. Darbadarlikdan, o`zimning simobday beqaror sayoqligimdan juda o`kinar edim. Salgina bosiq, salgina o`yinqaroq bo`lmasam, hammaning ham nonini tuyu qilib bera olar edim" [G` .G` ulom. 2019; 73].

Qoravoyning yana bir "qora" tomonini yozuvchi o`rtog`i Omon bilan odamlarning uyida xizmat qilib yurgan vaqtida ko`rsatadi. Bolalarning ishlari juda og`ir edi, shu sababli ular bu joyni ham tark etishlariga to`g`ri keladi. Qoravoy ko`pincha umidsizlik bilan qiyinlar, birovga shogird tushish, yoki yugurdaklik qilishga hamisha tayyor edi. Boshqa katta bolalardek onasiga qarashishni xohlar edi. Har gal ishi yurishmay, har xil tuhmatu nohaqliklarga ro`para kelsa, o`kinib, o`zini-o`zi koyir, ba`zan esa achchiq ko`z yosh to`kar edi. Yaxshi pul to`play olmagani uchun Qoravoy boshqa xonadonlarga xizmat qilish bilan ayohatini davom ettiradi. Asar nihoyasida esa Qoravoy har qanday ko`rgiliklarga sabr qila oladigan, nohaqliklarga qarshi turli usullar bilan kurashadigan, oilasi haqida qayg`uradigan o`smir yigit qiyofasida tasvirlanadi. Hatto Qoravoyni o`g`irlilikda ayplashganida, u yig`lab hozirjavoblik bilan javob bera oladi: "Yo`q Hoji bobo, ilgariroq men sizni qoziga chaqirtiraman. Salkam to`rt oy xizmatingizni qilib, topganim bitta oporka bilan eski qalpoq bo`ldi. Buning ustiga etim deb siylab o`tirmay, ikkovlashib toza savaladingiz. Haq bermadingiz. Bu qaysi shariatga kiradi-yu, qaysi zakonda bor. Oq podshohimizning dargohlarini bedarvoza deb bilasizmi? Yo`q, men sizni qoziga chaqirtiraman!" [G` .G` ulom. 2019; 175].

Qissadagi Shum bola obrazi tasviri orqali o`smir bolalar ruhiyati, o`z-o`zini anglashi va kelajak hayotini mustaqil qurishga intilishida sayohat-sarguzashtning o`rnii yaqqol oydinlashadi. Ya`ni, zerikarli kundalik hayotidan qochib, erkinlikni orzu qilishi, hayotida o`zgarish qilishga intilishi qahramonlarni sayohatga etaklagani anglashiladi. Binobarin, jahon va o`zbek bolalar sarguzasht nasridagi o`smirlar obrazi va ruhiyatini qiyosiy o`rganish orqali ayrim o`ziga xoslik hamda o`xshashliklarni kuzatish mumkin.

Mark Tven Geklberri Finndagi erkinlikka erishish tuyg`usini roman boshidayoq tasvirlab beradi. Roman bosh qahramoni do`sti Jimning erkin va ozod bo`lishi uchun bor kuchi bilan harakat qiladi. Yozuvchi jamiyatning aynan qora tanlilarga munosabati g`oyasini ham ilgari surib, Gek orqali samimiy bolalik qalblarini do`stlik rishtasi bilan bog`lanishini, do`stining qullik hukm surmagan joyga qochishiga yordai berishida hamma narsaga tayyorligini ko`rsatib beradi. Shu tariqa, Mark Tven o`z siyosiy qarashlarini qahramonlari timsolida mujassamlashtira

olgan. Insonlarni rangiga qarab emas, balki qalbining pokligiga ko`ra munosabat bildirishni yoqlaydi. Unga quldek muomala qilish noto`g`ri ekanligini ta`kidlaydi: "Anchagacha Jimni so`kishdi, elkasiga bir-ikki marta tushirishdi ham, Jim indamas, hatto meni tanimaganday turar edi. Keyin fermerlar uni yana o`sha bostirmaga olib kirib, ustiga eski kiyimni kiygizishdi, yana kishanga solib qo`yishdi, ammo bu safar kishanni karavot oyog`iga emas, devorning eng pastki xodasiga vint qoqib, o`sha vintga bog`lab qo`yishdi, qo`llariga ham kishan solishdi, egasi kelguncha faqat non bilan suv berib boqinglar, egasi kelmasa, kimoshdi savdo qilib, sotib yuboringlar deyishdi..."

Geklberri Finn jamiyatdagi ana shunday nobop tuzum, noxolis munosabatlar guvohi bo`lish orqali ruhiyatida, tafakkurida keskin o`zgarishlar yuz berganligi asar kontseptsiyasini belgilay olgan. Kattalardan ko`ra bolalar va o`smirlarda samimiylilik, insoniy tuyg`ular ko`pligini, hayot haqiqatiga ular nigohi orqali qarashni ayonlashtiradi. Umuman, Mark Tvenning "Gekl'berri Fanning boshidan kechirganlari" va G`afur G`ulomning "SHum bola" qissasini nazardan o`tkazish orqali bosh qahramonlarning ruhiy holatidagi umumiyligi va farqli xususiyatlar ko`zga yaqqol tashlanadi:

1."Gekl'berri Fanning boshidan kechirganlari" romaning bosh qahramoni Geklberri Finndagi ozod va farovon hayot kechirish tuyg`usi "Shum bola" dagi Qoravoyda ham bor edi. Qoravoy pul topish uchuí uyidan qochib ketdi, ammo yuragida yaxshigina pul to`plab, uyiga qaytib kelish niyati bor edi. Qissada bosh qahramon bu istagini ochiq aytmagan bo`lsa-da, bu istagini yozuvchi uning hatti-harakatlarida mujassamlashtiradi.

Geklberri Finn ham mustaqil hayot kechirish uchun olis va uzoq sayohatga yo`l olib, kelajakda o`z yo`lini topishga intiladi.

2. Shum bola va Geklberri Finndagi yolg`on gapishtirish odati qahramonlarning og`ir va noqulay vaziyatdan qutlib qolish ilinji bo`lgan. Shum bola boyni uyiga chaqirib olish uchun o`zidan turli-xil yolg`onlar to`qiydi. Geklberri Finn esa yolg`iz do`sti Jimni qutqarish uchun yolg`on gapishtiriga to`g`ri keladi.

3.Qoravoy ko`pincha qayerga ketayotganini bilmaydi, u qisman ayrim xonadonlarda, birovlarining dastyori bo`lib ishlasa ham, asosan darbadarlik hayoti cho`lu biyobonlarni sayoq kezib yurishi bilan o`tadi. Geklberri Finn esa ancha aqli va izquvar, uddaburon bola bo`lib, doimo rejallashtirgan va mo`ljallagan ishlarini amalga oshirardi. Masalan qora tanli do`sti Jimni mustaqil va ozod inson bo`lishi uchun yaqin do`sti Tom Soyer bilan har-xil rejalar tuzib, maqsadiga erishish uchun kurashishga muvaffaq bo`ladi.

4.Geklberri Fanning ruhiyatidagi vijdonlilik tuyg`usi u noto`g`ri yo`ldan borayotganida paydo bo`ladi. Uning haqiqiy jentel'menlardek boshqa odamlarga yaxshilik ulashishi, samimiyligi va mehribon inson ekanligi o`z isbotini topadi. Qoravoy esa aksincha sho`x va o`ynoqi boladan jiddiy, tafakkurli o`smirga aylanadi. U har qancha xo`rlanishlarga sabr qilib, yigirma etti so`mu ikki tanga pul egasi bo`ladi.

5.G`afur G`ulom sarguzasht-qissada o`smir bola ruhiyatini xalq yumori ohanglari bilan to`yintirsa, Mark Tven o`z romanida pikaresk usulidan

foydalananadi. Bunda yozuvchi roman voqealarini bosh qahramon tili va tafakkuriga mos ravishda bayon qiladi.

6. Asarlarning avtobiografik xarakterga egaligi ham ular o`rtasidagi umumiylikni yuzaga keltirgan. Mark Tven yoshligining ko`p vaqtini daryo bo`yida o`tkazganligi uchun, asarlaridagi qahramonlarining sarguzashtlarini ham daryo bilan bog`laydi. Mark Tven XIX asr oxirida Shimoliy Amerikaning Missisipi daryosi bo`yida yashab, qullik, irqchilik, qashshoqlik avj olgan davrning guvohi bo`lib, o`zi yashagaí davr haqidagi qarashlarini ko`plab romanlari, jumladan, "Geklberri Finning boshidan kechirganlari" asarida teran ifodalaydi.

G`afur G`ulom ham o`zi tengi avlod bolaligining va shaxsan o`zi boshidan o`tkazgan kechinmalarini qahramoniga ko`chirgan. Shu sababli bu asar adabiyotshunosligimizda avtobiografik xarakterdagi sarguzasht qissa hisoblanadi. Qissada avtobiografik janr unsurlari mavjudligini, ayniqsa voqealarning birinchi shaxs - "men" tilidan olib borilishi janrning bu unsurini kuchaytirganligi adabiyotshunos olimlar B.Nazarov, O.Safarov tomonidan alohida ta`kidlangan. [Nazarov B.; 2004, 18.; Safarov O.; 2003]

Shu o`rinda "Shum bola"dagi Qoravoy obrazi ham serqirra ma`noga egaligi ayonlashadi. G`arbda jamiyatning qora tanlilarga munosabati, qullikdan ozod bo`lish g`oyasi Jim obraziga singdirilganidek, "SHum bola"dagi Qoravoy ham mamlakat bolalarining kelajak timsoli, o`z erkidan mosuvo mardikor avlodning voyaga etayotganiga ishora edi go`yo. G`afur G`ulom o`tgan asrning 30-yillaridayoq o`z qahramoni taqdiri orqali mustabid sho`ro davrining jamiyatga, yosh avlodga munosabatini sayohat va sarguzashò motivi orqali shu tariqa yorqinroq aks ettirishga erishgan, deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mark Tven. Gekl'berri Finning boshidan kechirganlari. -Toshkent: Qaqnus media, 2020.
2. G`afur G`ulom. Shum bola.? Toshkent: Nurafshon business, 2019.
3. Nazarov B. G`afur G`ulom olami. Toshkent: Fan, 2004.
4. Safarov O. Zamonlar tongining charoqlarisiz. Buxoro, 2003.

MUNDARIJA

Баходир КАРИМОВ.	
“ШУМ БОЛА”НИНГ ФАСОҲАТИ.....	4
Абдулла УЛУҒОВ.	
ЮҚСАҚ ШЕҶРИЯТ ЖОЗИБАСИ.....	11
Almaz ŪLVİ BİNNATOVA.	
QAFUR QULAM VƏ AZƏRBAYCAN (G‘AFUR G‘ULOM VA OZARBAYJON).....	31
Zaynabidin ABDIRASHIDOV.	
MUSTAQILLIK DAVRIDA G‘AFUR G‘ULOM IJODINING O‘RGANILISHI MUAMMOLARI.....	36
Damin TO‘RAYEV, Obitjon KARIMOV.	
O‘ZBEKNING CHIN MA’NODAGI O‘KTAM SHOIRI.....	46
Рано ИБРАГИМОВА.	
ЁЗИШМАЛАРДА АКС ЭТГАН ГАФУР ГУЛОМ ПОРТРЕТИ.....	50
Shoira AXMEDOVA.	
G‘AFUR G‘ULOM MAKTUBLARIDA QALB VA QIYOFA UYG‘UNLIGI.....	56
Шавкат ҲАСАНОВ, Гулбахор ЭРНАЗАРОВА.	
ГАФУР ГУЛОМ ШЕҶРИЯТИДА ВАҚТ ФАЛСАФАСИ.....	60
Умида РАСУЛОВА.	
ГАФУР ГУЛОМНИНГ ПОЭТИК МАҲОРАТИ.....	66
Дилрабо ҚУВВАТОВА.	
ГАФУР ГУЛОМ ЛИРИКАСИДА ФИКР ВА ТУЙФУ УЙГУНЛИГИ.....	71
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ.	
ГАФУР ГУЛОМ ВА ҚОЗОҚ АДАБИЁТИ.....	75

Дилмурод ХОЛДОРОВ.	
ҒАФУР ҒУЛОМНИНГ УСЛУБИЙ ЎЗИГА ХОСЛИГИ.....	76
Баҳодир РАҲМОНОВ.	
ҲАМИД ОЛИМЖОННИНГ БАХТ ФАЛСАФАСИ.....	80
Санобар ТЎЛАГАНОВА.	
“ШУМ БОЛА” ҚИССАСИ ЁЗИЛИШИДАГИ ИЖТИМОИЙ ОМИЛЛАР.....	85
Fizuli Нәсмәddin оғлу MUSTAFAYEV.	
KİNO DİLİNĐƏ SAMİTLƏRİN YERİ VƏ İŞLƏNMƏ MƏQAMLARI HAQQINDA.....	92
Олим ОЛТИНБЕК.	
РАУФ ПАРФИ ИЖОДИДА ҚАТАГОН ҚУРБОНЛАРИ СИЙМОСИ.....	101
Qoʻldosh PARDADEV.	
GʼAFUR GʼULOM VA MUQIMIY SHEʼRIYATI MATNI.....	106
Марҳабо ҚўЧҚОРОВА.	
“ШУМ БОЛА” ҚИССАСИДА “МИНГ БИР КЕЧА” АНЪАНАСИ: ФОЛЬКЛОР СТИЛИЗАЦИЯСИ.....	110
Исмоил САИФНАЗАРОВ, Лутфулла ИЛҲОМЖОНОВ.	
МАЪРИФАТГА ТАШНА СУЛОЛА.....	114
Nasiba ABDULLAYEVA.	
GʼAFUR GʼULOMNING ESTETIK QARASHLARI.....	120
Bashorat JAMILOVA, Mohigul QAHHOROVA.	
JAHON VA OʼZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA SAYOHAT,SARGUZASHT MOTIVINING UYGʼUN TAMOYILLARI.....	123
Nodira SOATOVA.	
GʼAFUR GʼULOM IJODIDA FOLKLOR UNSURLARI.....	129
Рухсора ТЎЛАБОЕВА.	
ҒАФУР ҒУЛОМ ИЖОДИДА БОЛА ОБРАЗИ.....	133
Obidaxon FAYZULLAYEVA.	
HAYOT VASFİ VA POETIK MUSHOHADAKORLIK.....	136